



History of the Jizzakh Regional Musical Drama Theater

Farangiz NORMURODOVA¹

Jizzakh State Pedagogical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2025

Received in revised form

15 June 2025

Accepted 25 June 2025

Available online

15 July 2025

Keywords:

theater,

"Ko'k ko'ylak" (Blue Dress),

stage,

play,

repertoire,

comedy,

Jizzakh,

Forish,

Bakhmal,

Zaamin,

Hamza,

K. Yashin,

A. Qahhor,

Yunus Rajabiy,

"Oltin devor" (Golden Wall),

"Xolisxon",

"Asilzoda kelin" (Noble Bride).

ABSTRACT

This article examines the emergence of theatrical art in Jizzakh region, highlighting local artists and representatives of the art scene. Additionally, it provides information about the activities of the Yunus Rajabiy Jizzakh Regional Musical Drama Theater.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss6/S-pp169-174>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Jizzax viloyati musiqali drama teatri faoliyati tarixi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

teatr,

Ko'k ko'ylak,

sahna,

pyesa,

repertuar,

komediya,

Jizzax,

Forish,

Mazkur maqolada Jizzax viloyatida teatr san'atining vujudga kelish jarayoni, hududdagi san'at vakillari, shuningdek, Yunus Rajabiy nomidagi Jizzax viloyati musiqali drama teatri faoliyatiga oid ma'lumotlar haqida so'z yuritiladi.

¹ Doctoral student, Jizzakh State Pedagogical University.

Baxmal,
Zomin,
Hamza,
K. Yashin,
A. Qahhor,
Yunus Rajabiy,
“Oltin devor”,
“Xolisxon”,
“Asilzoda kelin”.

История деятельности Джизакского областного музыкально-драматического театра

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

театр,
«Синяя рубаша»,
сцена,
спектакль,
репертуар,
комедия,
Джизак,
Фориш,
Бахмал,
Зомин,
Хамза,
К. Яшин,
А. Каххор,
Юнус Раджаби,
«Золотая стена»,
«Холисхан»,
«Благородная невеста».

В данной статье рассматривается процесс зарождения театрального искусства в Джизакской области, освещается деятельность представителей искусства региона, а также приводятся сведения о работе Джизакского областного музыкально-драматического театра имени Юнуса Раджаби.

San'atning vujudga kelishi va rivojlanib taraqqiy etishi uzoq hamda boy o'tmishga egadir. Zero, “Har bir xalqning qadimgi madaniyatini yaqqol ko'rsatib beradigan narsa uning san'ati hisoblanadi”, deya ta'riflagan edi mashhur teatrshunos olim Mamajon Rahmonov. Haqiqatdan ham san'at kishilik tarixini avlodlarga yetkazish omili hisoblanadi. Xususan, teatr san'ati ham ma'naviyatning eng yorqin, ta'sirchan ko'rinishlaridan biridir. Chunki teatr tomoshabinlarga bevosita ta'sir ko'rsatib, sahna bilan tomoshabinlar o'rtasida samimiy bog'lanish va muloqot hosil qilib, sahna ijodkorlarini ham tomoshabinlarni ham ma'nan boyitadi, ruhini sozlaydi hamda ko'nglini ko'taradi. Qolaversa, milliy mafkura, milliy g'urur, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik, mehr-saxovat, insoniylik hamda odob va axloq masalalarini yoritishda teatr boshqa san'at turlaridan ta'sirli, kuchli hamda jozibali imkoniyatga ega bo'lganligi uchun har bir millat teatr san'atini shakllantirishga intiladi.

Teatr san'ati yer yuzining barcha qit'alarida bir vaqtda, ya'ni ibtidoiy davrlarda marosimga oid harakatlarga bog'liq holda vujudga kelgan va har bir makonda teatrning taraqqiyot yo'llari turlicha bo'lgan. Xususan, Jizzax viloyatida ham teatr san'ati uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan va davr talablariga mos ravishda rivojlangan.

Jizzaxda teatr san'atining shakllanishi 1918–1919-yillarda boshlangan. Bu yillarda bir guruh san'at ixlosmandlaridan Mulla Hoshim, Abdusattor Abdurazzoqov, Abdulla Ahmedov, Ibrohim Mustafoqulov, Boymat Oymatov, Sodiq Zoirov, Orifjon Olimjonov,

Ohunjon Shernazarov, Saidqosim Xo'jayev, Mirzakarim Hojilar tomonidan dastlabki havaskorlik drama to'garagi tuziladi. Bu to'garak a'zolari Mamarahim Hojining uyida teatr ochib, Hamzaning "Boy ila xizmatchi", "Farg'ona fojiasi", "Tuhmatchilar jazosi", M. Uyg'urning "Turkiston tabibi", A. Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" singari asarlarini sahnaga qo'yishadi. Ana shu kichkina uyda boshlangan dastlabki havaskorlik harakati keyinchalik hozirgi Jizzax viloyati musiqali drama teatrining tashkil etilishiga asos bo'ladi.

1920-yilning 17-dekabrida Turkiston Respublikasi xalq maorifi komissarligida TEO (teatr bo'limi) barcha oblast va rayonlarda dramatik truppalar, Toshkentda esa doimiy ravishda ishlaydigan o'lka namunali o'zbek drama truppasini tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror Turkiston Respublikasi xalq komissarlari Sovetining 1921-yil 7-maydagi maxsus qarori bilan mustahkamlanadi. Mazkur qaror Jizzaxda faoliyat ko'rsatayotgan havaskorlik to'garagi nomini o'zgartirib "Ko'k ko'ylak" truppasi tuzilishiga asos bo'ladi. Truppa Narimonov nomli maktab ixtiyoriga berilib, o'quvchi yoshlar bilan a'zolar soni to'ldiriladi hamda maktab o'qituvchilaridan Said Qosimxo'jayev, Abdulla Ahmedov, Boymat Oymatovlar truppaga rahbarlik qila boshlaydilar.

To'garak a'zolari Forish, Baxmal, Zomin, G'allaorol kabi tumanlarda tez-tez bo'lib, aholiga tomoshalar ko'rsatib, bo'layotgan voqealardan xabardor qilib borishgan. Dam olish kunlarida esa Jizzaxning eski shahridagi bozor maydonlarida, dam olish maskanlarida, xalq ko'p to'planadigan joylarda sozanda, aktyor, raqqoslar ishtirokida aholiga madaniy xizmat qilganlar. Aktyorlar o'z san'atlaridan tashqari mehnatkash xalq o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini ham olib borgan, ularga gazeta va jurnallardagi so'nggi yangiliklarni o'qib berib, aholini dunyo yangiliklari bilan ham tanishtirib borgan.

O. Abdurazzoqov, O. Shernazarov, A. Ahmedov, I. Mustafaqulov va S. Xo'jayevlar teatrning ilk qaldirg'och ijodkorlari bo'lishgan. 1928–1931-yillarda rejissyor Po'lat Nosirov ilk bor G'. Zafariyning "Halima" nomli musiqali dramasini, U. Hoshimbekovning "Arshin Mololan", S. Ayniyning "Buxoro jallodlari" kabi asarlarini sahnalashtiradi. Spektakllarda bosh rollarni Ibodat Xaqberdiyeva, Po'lat Nosirov, Said Xoldorov va Ibrohim Karimovlar mahorat bilan ijro etadilar va xalq olqishiga sazovor bo'lishadi.

1932-yil 23-aprelda Markaziy Komitetning "Adabiy-badiiy tashkilotlarni qayta tuzish haqidagi" qarori asosida Jizzax shahridagi "Ko'k ko'ylak" truppasi Samarqand kolxoz-savxoz teatri deb yuritila boshlanadi. Bu teatrga rejissyor Sa'dulla Jo'rayev badiiy rahbar etib tayinlanadi. Bu yillar davomida teatrdan K. Yashinning "O'rtoqlar", "Nomus va muhabbat" G'. Zafariyning "Xalima", N. Safarovning "Uyg'onish", italiyalik dramaturg K. Gossining "Malikai Turandot" kabi asarlari sahnalashtirilib, xalq olqishiga sazovor bo'ladi.

Ikkinchi Jahon urushi yillarida teatrdan davr ruhiga mos bo'lgan, K. Yashinning "Davron ota", "O'lim, bosqinchilarga", A. Korneychukning "Front", S. Abdulla, A. Chustiyning "Qurbon Umarov" nomli asarlari sahnalashtiriladi. Bu davrda teatrning asosiy vazifalaridan biri xalqni birlashtirishdan iborat bo'lgan. Urushdan keyingi yillarda teatr repertuari mazmunan boyib, teatr sahnasidan asosan qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, yangi yerlar ochishdagi qahramonlik hamda vatanparvarlik ruhida spektakllar o'rin oladi. Jumladan, bu yillarda Hamzaning "Boy ila xizmatchi", "Xolisxon", K. Yashinning "Nurxon", A. Qahhorning "Shohi so'zana", Sh. Sadullaning "Dalada bayram" asarlari sahnalashtiriladi.

1957-yilda respublikadagi ko'plab teatrlar moliyaviy ahvolini yaxshilash va ularni ijodiy imkoniyatlarini oshirish maqsadida birlashtiriladi. Jumladan, hududdagi teatr truppasi ham Samarqand va Surxondaryo musiqali drama teatri ixtiyoriga o'tkaziladi.

Truppa a'zolarining bir qismi esa Jizzaxda qolib, Jdanov nomli kolxoz klubida yana drama to'garagini tashkil etishadi, unga Said Xoldorov va Xasan Toshpo'latovlar rahbarlik qilishadi. To'garak a'zolari safidan N. Azimov, M. Raxmatova, Q. Ho'jayev, D. Ahmedov, X. Mirzayev, O. Rahimova, S. Jo'rayev, R. Sattorov kabi san'atga chanqoq talantlar joy oladi.

Qisqa vaqt ichida to'garak repertuaridan X. Muhtorovning "Olonning oilasi", Hamzaning "Tuhmatchilar jazosi" asarlari o'rin oladi. Rejissyor Said Xoldorov A. Qahhorning "Shohi so'zan" asarini qayta sahnaga qo'yadi. Mazkur asar 1960-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan drama to'garaklari ko'rigida namoyish etilib, to'garakka madaniyat vazirligining "Xalq drama teatri" unvonini olib beradi. 1960-yillar davomida teatrning badiiy boshqaruvi hamda tashkiliy tuzulishi ham yangilanib boriladi.

1964-yilda Sirdaryo viloyati tashkil etiladi hamda Jizzax shahridagi Eski shahar madrasasida ish olib borayotgan Jizzax xalq teatri, Sirdaryo viloyati musiqali drama teatriga aylantirilib, teatr qozoq dramaturgi Shang'itboyev va S. Rahmonovning "Jon qizlar" nomli komedik asarini sahnaga qo'yish bilan o'z faoliyatini boshlaydi. Teatr Toshkentdagi Ostrovskiy nomli teatr va rassomchilik institutini tugallab kelgan yoshlar hisobiga mustahkamlanadi. Unga S. Rahmonov direktor, S. Yunusxo'jayev esa bosh rejissyor etib tayinlanadi. Bu yillar davomida teatrdan ko'plab asarlar sahnalashtirilib aholiga namoyish etiladi. "Toshbolta oshiq", "Parvona", "Yoshlikda bergan ko'ngil", "Layli va Majnun", "Alpomish", "Alisher Navoiy", "Aldar ko'sa", "Makr va muhabbat", "Zo'raki tabib" kabi pyesalar shular jumlasidandir. 1972-yilda teatr jamoasi qardosh xalqlar dramaturgiyasi tanlovida ishtirok etib "Oltin kosa" spektakli uchun 3-darajali diplom bilan taqdirlanadi.

1974-yilda hukumat qarori asosida Jizzax viloyati tashkil etiladi, natijada Jizzax shahrida faoliyat olib borayotgan Sirdaryo viloyati teatri, Jizzax viloyati musiqali drama teatri sifatida faoliyatini davom ettirishni boshlaydi. Bu teatrga Karim Soatov direktor, G'. Hamidullayev esa bosh rejissyor qilib tayinlanadi.

Teatr jamoasi 1980-yilda zamonaviy ko'rinishdagi 550 o'rinli yangi binoga ko'chib o'tadi, bu esa sahna madaniyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Unga O'ktam Mamajonov direktor etib tayinlanadi. Teatrdan har xil janrdagi asarlar: drama, komediya, musiqali spektakllar hamda baletlar sahnalashtiriladi. Jumladan, ijodiy guruh rus dramaturgi L. Ustinovning "Bo'lingan orol" asarini sahnalashtirib, uni yangi binoda namoyish etishadi.

1988-yilda teatrga taniqli o'zbek kompozitori Yunus Rajabiy nomi berilib, bu teatr tarixida yangi bir bosqichning boshlanishiga turtki bo'ladi. F. Hamidullayev, keyinchalik, F. Iskanarovlar bosh rejissyor, S. Najafov bosh rassom, A. Abdurahimov bosh dirijor, D. Karimov bosh baletmeyster qilib tayinlanadi. Aktyorlardan H. Amirqulov, G'. Hasanov, M. Rahmatova, A. G'afurovlar sahna obrazlarini yaratishda yetakchilik qiladilar. Shu vaqtlarda teatr kamolot sari yuksalib boradi. Teatr repertuari "Oltin devor", "Xolisxon", "Asilzoda kelin", "Kelinlar qo'zg'aloni", "Qoraqum fojiasi", "Xonuma xonim", "Monserro", "Gulli siyoh" kabi spektakllar bilan boyitiladi.

Teatrdan turli yillarda ko'plab taniqli san'atkorlar, A. Jo'rayev, B. Nazarov kabi rejissyorlar, G. Vizel, V. Riftin, M. Musayev kabi rassomlar, H. Azimova, T. Sodiqov, X. Bekjonov singari aktyorlar ijod qilishgan. Shuningdek, O'zbekiston xalq artistlari Husan Amirqulov, Xosiyat Azimova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar G'ofur Hamidullayev, G'olib Yo'ldashev, Ikrom Tursunov, Mavjuda Rahmatova kabi san'atkorlar o'zlarining yuksak san'ati bilan teatr taraqqiyotiga katta hissalarini qo'shishgan.

1990-yillardan boshlab, Jizzax viloyati musiqali drama teatri o'zining repertuarlarini zamonaviy mavzularga moslashtirib bordi. Bu davrda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ijtimoiy adolat kabi mavzular teatr sahnasida ko'tarilib, ko'plab spektakllar namoyish etildi. Shuningdek, teatrda sahnalashtirilgan musiqali va raqsli spektakllar ham san'at ixlosmandlari orasida katta qiziqish bilan kutib olindi.

Teatrda turli yillarda elga taniqli ko'plab san'atkorlar yetishib chiqqan bo'lib, ulardan Oysha Mavlonova, G'ulomjon Yoqubov, G'ofur Hamidullayev, Shafolat Rahmatullayeva, Xusan Amirqulov, Hamid G'afurov, Xosiyat Azimovalar ilk ijodiy faoliyatlarini shu madaniyat dargohida boshlaganlar va shu yerda elga tanilganlar.

Teatr o'z faoliyati davomida turli xalqaro va milliy festivallarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, Toshkentda bo'lib o'tgan "O'zbekistonda teatr san'ati" nomli festivalda sahnalashtirilgan asari xalq olqishiga sazovor bo'lgan. Shuningdek, Turkiya, Rossiya va boshqa davlatlarda hamda O'zbekistonning boshqa tumanlarida bo'lib o'tgan teatr festivallarida qatnashib, o'zining ijobiy yondashuvi bilan e'tiborga sazovor bo'lib kelmoqda.

2017-yilda teatrga Jizzax viloyati musiqali drama teatri maqomi berilib, teatr binosi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan jahon andozalari asosida rekonstruksiya qilinib, bino oldida favvora barpo etildi. Teatrning birinchi va ikkinchi qavatlarini milliy va zamonaviy arxitektura me'yorlari asosida qayta ta'mirdan chiqarilib, grim xonalarida zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bu kabi amaliy ishlar teatr hamda ijodiy guruh faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Jizzax viloyati musiqali drama teatri bugungi kunda ham samarali faoliyat olib bormoqda va mazkur dargohda ko'plab el suygan san'atkorlar o'z ijod namunalarini xalqqa namoyish etib, tomoshabinlar uchun tarbiya maskani vazifasini bajarib kelmoqda.

Xulosa o'rnida, inson ma'naviy olamini yuksalishida, ong va tafakkurini teranlashtirishda teatr san'atining o'rni muhim hisoblanadi. Chunki teatr shunchaki oddiy tomoshaxona emas, balki tarbiya, madaniyat, ma'naviyat hamda ma'rifat maskani bo'lib xizmat qiladi. Har bir yurtning o'z shoiri, san'atkori bo'ladi, ular odamlarni ma'naviy tomondan tarbiyalaydi, urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni kamol topishiga harakat qiladi, dramaturg va aktyorlar esa ezgulik urug'ini sahna asarlari orqali sochadi. Shu jihatdan teatr chinakam ma'naviyat maskani hisoblanadi. Xalqimiz azaldanoq o'z orzu-istaklarini rivoyatlarda, qo'shiqlarda, raqslarda ifoda etib kelishgan. Xalq orasidan yetishib chiqqan san'atkorlar o'zlari yashagan muhit muammolariga qarshi kurashib mehnatkash ommani ezgulik sari yetaklaganlar. Xususan, Jizzax viloyati musiqali drama teatri yuz yillik tarixi davomida xalqning sevimli maskaniga aylangan. Mazkur teatr bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida, milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda faol ishtirok etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmonov M. "Teatr". O'zbekiston Sovet Ensiklopediyasi. 1978-yil X jild, 12-b.
2. Haydarov H. Jizzax tarixi. Toshkent: Mehnat. 1996, 204-b.
3. Xolmurodov R va boshqalar. Tarixiy o'lkashunoslik fanini o'qitishda mahalliy materiallardan foydalanish (Jizzax viloyati misolida). Toshkent: Istiqol nuri, 2014, 139-b.
4. Xolmurodov R.M. Tarixiy o'lkashunoslik va turizm (Jizzax viloyati manbalari asosida). "Fan va ta'lim nashriyoti" 2023, 164-b.
5. Xolmurodov R. Tarixiy o'lkashunoslik va turizm. Jizzax: Ilm nuri print, 2024, 290-b.

6. Teatr tarixi. O'quv qo'llanma. Namangan-2014, 12-b.
7. Y.Rajabiy nomidagi Jizzax oblasti musiqali drama teatri 60 yil. 1981, 7-8 b.
8. "Ko'k ko'y lakdan boshlangan...", Jizzax haqiqati, 1991-yil 14-dekabr soni № 150 (2957).
9. "Teatr yilnomasi", Jizzax haqiqati, 1991-yil 14-dekabr soni №150 (2957)
10. Yunus Rajabiy nomidagi Jizzax viloyati musiqali drama teatri joriy arxivi. 2025.
11. "Teatr tarixi". jizzaxteatr.uz